

Kakishova Gulnar Meretdudy qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti Turkman tili va adabiyoti

yo'naliishi 1-D bosqich talabasi

Gayipova Leylo Shuxrat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti Turkman tili va adabiyoti

yo'naliishi 1-D bosqich talabasi

Qaqabayeva Maxim Kakamirat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti Turkman tili va adabiyoti

yo'naliishi 1-D bosqich talabasi

Annotatsiya : O'zbekiston xalqining noyob farzandi bo'l mish Erkin Vohidov xalqimiz suygan shoir hisoblanadi. Erkin Vohidov turli janrlarda barakalli ijod qildi. Erkin Vohidov ijodi XX asr o'zbek adabiyotining eng katta va qimmatli yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar : Vatan , yoshlik , ijod , samimiyat , obraz , janr , do'stlik , milliylik , insonparvarlik .

Erkin Vohidov xalq suyib ardoqlovchi, inson bo`lganligini isbotlab berishimiz joizdir.U o`z xalqiga shunday degan ekan: Odamlar, siz mening hayotim, Har biringiz umrim parchasi degan manoli so`zlari bordir. Erkin Vohidov adabiyotning turli janrlarida ijod qilib asardan-asarga o`sma bordi. Shoirning ijodiy o`sishida uning xalqi hayoti va ustozlar mahoratini o`rganishi muhim ahamiyatga ega bo`ldi. U o`z she`riyatida inson, mehnat, Vatan, yoshlik, do`stlik, samimiylik va go`zallik singari adabiy dolzarb mavzularni lirika torlariga solib o`ziga xos yoqimli va ravon uslubda kuylaydi. Iste'dodli san'atkorlarning butun bir ijodigina emas, balki har bir asari o'nlab, yuzlab olimlar tomonidan bat afsil tadqiq qilinadi, sinchiklab o`rganiladi. Mabodo, ular bir joyga jamlangudek bo`lsa, ajoyib bir tafakkur chamanzori dunyoga keladi. Undagi bir-biriga mutlaqo o`xshamagan har bitta gul o`z rangi hamda tarovati bilan ko`ngillarga orom beradi va ijodkor gulzorining turfaligini ko`rsatuvchi fazilatga aylanadi. Fikr fikrni uyg`otadi deganlaridek, ijodkor uslubi va mahoratining yangi-yangi qirralari ochilaveradi. Chunki haqiqiy iste'dodli san'atkorning ijodiy merosi ummonga o`xshaydi. Unga sho'ng`igan g`avvos nasibasiga yarasha duru gavharlarni terib chiqaveradi, ular esa mutlaqo tugamaydi. Zamonamizning iste'dodli shoiri Erkin Vohidov ijodi ham ana shunday ummonlardan biridir. Agar shoir ijodi haqidagi ilk maqolalar matbuotda e'lon qilinganiga yarim asrdan oshganini inobatga olsak

hozirgacha bu ummondan yig‘ib olingan javohirot xazinasining hisobiga yetish mushkul ekanligi ayon bo‘ladi-qoladi. Shundan buyon o‘tgan davr mobaynida biron bir o‘zbek adabiyotshunosi yo‘qki, o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlarida, bir marta Erkin Vohidov nomini tilga olmagan, shoir ijodiga xos yangi bir fazilatni kashf etmagan bo‘lsin! Shunga qaramay, bu san’atkor ijodining ochilmagan qatlamlari juda serob. Men ham ana shu qatlamlar qa’riga kuchim va nafasim yetgancha sho‘ng‘ib, Erkin Vohidov she’riyatining o‘zim ilg‘agan ayrim fazilatlari haqidagi fikr yuritmoqchi bo‘ldim.

Avvalo, Erkin Vohidov poetik tafakkuri g‘oyat keng va tiniq shoir ekanligini ta’kidlash zarur. Hayotda ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarga teran nigoh bilan qarash, ularning tub mohiyatini anglashga intilish, qaysi biri xayrli, qay biri soxtaligini aniqlay olish istagi shoirning ilk ijodiy qadamlaridan buyon yo‘ldosh bo‘lib kelayotir. Shoirning badiiy tafakkuri doimiy harakatda bo‘lgani tufayli o‘zining sarxil mevalarini tez va mo‘l-ko‘l bera boshladi. Natijada, E.Vohidov ijodi jadal sur’atlar bilan kamolot cho‘qqisiga ko‘tarildi va ustoz adabiyotshunos Umarali Normatov lutf qilganlaridek, shoir qalamiga mansub har bir so‘z, har bir satr chindan ham “Ko‘ngillarga ko‘chgan she’riyat”ga aylandi.

Ma’lumki, Erkin Vohidov tengdosh bo‘lgan avlod adabiyotga o‘tgan asrning 60-yillarda kirib keldi va o‘zbek she’riyatini ham shaklan, ham mazmunan tubdan yangiladi. Aynan shu yillarda qo‘liga qalam olgan shoiru yozuvchilar yuragi ozodlik, erk tuyg‘usi bilan to‘lib-toshgan edi. Hurriyatga, erkka intilgan bu ijod ahli o‘z asarlari ruhiga, eng avvalo, millatning qadr-qimmatini ulug‘lashni, milliy iftixor tuyg‘usini singdirishni istadi va bunga dadil kirishdi. Natijada, bu avlodning ilk she’rlariyoq o‘sha paytdagi jamiyatda chuqur tomir otgan yolg‘onga, soxtalikka, balandparvozlikka qarshi isyon sifatida jarangladi. Ammo bu isyonni ochiq-oshkora bayon etish mumkin emasdi. Chunki yakkahokimlikni boy berib qo‘yishni istamagan kommunistik mafkura zaharli tishlarini qayrab turardi. Xayriyatki, she’riyatda fikrni ramziy timsollar orqali ifodalash, tiklonni gulga o‘rab “tortiq” qilishning turli usullari va vositalari bor. 60-yillar ijodkorlari ana shu usul va vositalardan unumli foydalanib, odamlar yuragiga kirib bordilar. “Mening ham o‘sha yillarga mansub she’rlarimning har uchtadan bittasida jamiyatdagi yolg‘onu aldrovlarga qarshi isyon tuyg‘usi bor” deydi bu haqda E.Vohidov (“Bu obod kunlarga yetdik sog‘-omon...” Suhbat. “Tafakkur” j., 2011, 3-son).

Aslida, bu avlodning xizmati shu bilangina cheklanmaydi. Chunki ular o‘z qutlug‘ qadami bilan she’riyat sohasidagina emas, balki ijtimoiy-siyosiy jabhalarda ham, ma’naviy-ma’rifiy maydonda ham tub o‘zgarishlarni vujudga keltirdi. Har bir ijodkor qullikkha mahkum etilgan xalq o‘zining ayanchli turmushi mohiyatini chuqurroq anglasin, unga tanqidiy nuqtai nazardan qarasin, degan qutlug‘ niyat bilan qo‘liga qalam oldi, butun adabiyoti, ma’naviyati, ma’rifati tarixida tom ma’noda yangi sahifalar ochdi. Ular badiiy so‘z vositasida odamlarning mudroq qalbini uyg‘otdi, ong-shuurida isyon yasadi.

Odamlarga faqat she'rigina emas, balki o'zi ham kerakligini chuqur his etib yashash istagi Erkin Vohidovni hamisha ana shu avlodning oldingi safida yurishga undadi. Shoir ijodining ilk qadamlaridan ijodkorlik va fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etib, uning zalvorli yukini ongli ravishda zimmasiga ortgan holda yashab va ijod qilib kelmoqda. Agar sinchiklab qaralsa, Erkin Vohidov asarlarida millat sha'niga maqtov yog'dirishdan, unga hamdu sanolar o'qishdan ko'ra, ko'proq insonning hayot oldidagi burchini anglashi, zamon uning yelkasiga ortayotgan tahqirli yukdan qanday qilib ozod bo'lish yo'llarini izlashi lozimligi to'g'risida yozishni muhimroq deb bilganini anglash qiyin emas. Shu boisdan, u butun hayoti davomida ham ijodiy, ham ijtimoiy faoliyatini bir-biriga qo'shib olib bordi va bu uzviy bog'liqlik shoir she'rlariga o'ziga xos mazmun hamda rang bag'ishladi.

Erkin Vohidov har doim ijodining boshlanishida aytgan:

Xalq – ustozim, men esa – tolib,
So'z durlarin termoqdir ishim.

Odamlarning o'zidan olib,

Odamlarga bermoqdir ishim, – degan printsipiga qat'iy amal qilib yashadi va ijod qildi. Buning natiasi o'laroq, u chinakam xalq shoiri sifatida tan olindi. Shoir butun ijodi mobaynida o'zini "erkalab bag'riga bosgan, mehnatkash, bag'ri keng, orzulariday ulug' xalqi"ning beqiyos fazilatlarini, dardini kuylab kelmoqda. Shuning uchun ham shoirimiz asarlarida xalqona ruh, soddalik mudom ustuvor bo'lib kelayotir.

Dadil aytish mumkinki, Erkin Vohidovning nafaqat har bir she'ri, balki undagi har bir satri ham "to'lqin urgan sirlar to'la ummon"dir. Chunki chin ma'nodagi "shoir o'z xalqining yurak parchasi" hisoblanadi. Bunday yurakda, shubhasiz, isyon tug'iladi. Isyonga dosh bermoq esa osonmas, binobarin, isyon bedor qalb inqilobidir. Bunday qalb xalq dardi bilangina nafas oladi. Shu boisdan shoir "men"i xalqning tili va dili, jigarbandi, farzandi sifatida namoyon bo'ladi. U yaxshimi, yomonmi, 30 millionlik xalqini o'z qalbiga jo qilgan, uning tashvishi va quvonchi bilan nafas olayotgan tirik jondir. Ana shu xalqining dardi, so'zini ifoda etmoqlik ijodkor o'zligining tub mohiyatini tashkil etadi. Shoir tomonidan mana bu misralar bejiz yozilmagan:

Seni sezdim hargiz o'zimda,
Menda fikring, o'ying, tilaging.
Har nafasda yoniq ko'ksimda
Urib turar sening yuraging.

Aynan ana shu xalqning yuragi urib turganligi uchun ham Erkin Vohidov she'rlarida "bahoriy iliqligu nahoriy tiniqlik" barqaror.

Erkin Vohidovning har bir she'rida davrning yorqin manzarasi, xalqning o'lmas ruhiyati, millatning monumental qiyofasi to'la aks etadi. Shoir she'rlarida ilgari surayotgan g'oyani o'quvchiga majbur qilib tushuntirmaydi, satrlar zimmasiga og'ir yuk ortmaydi. Iloji boricha, oddiygina so'zlar va lirik qahramonning xatti-harakati orqali yengilgina taqdim etadi. Quyidagi "Hoji ota Marg'iloniy so'zi"ga qulqoq tuting-a:

Yetmish yillik umrim o'tdi xorijda,
Yuzdan oshgan Hoji otang bo'laman.
Tirik yurdim Istanbulda, Porijda,
Ona yurtdan ayru qandoq o'laman?
Qandoq ketay Vatanimni ko'rmay hur,
Ilhaqlikdan zo'r dunyoda hech dard yo'q.
Mana, yetdim murodimga, ming shukur,
Endi, bolam, o'ladigan nomard yo'q!

Guvoh bo'lib turibsizki, bu she'rda ortiqcha balandparvoz so'zlar, vatanparvar shaxsning ehtirosli tuyg'ulari, tashbehlaru metaforalar, ovozni ko'tarib chiranihishlar yo'q. Oddiygina insonning odmigina suhbat. Biroq suhbat shu qadar samimiyl, soddaki, unda yuz yoshdan oshgan Hoji otaning butun qalbi yarq etib ko'rinyapti. Hoji ota fikrini ifodalash uchun tanlangan so'zlar sodda va qahramonning yoshiga munosibligi bilan e'tiborni tortadi. Misralardagi bironta so'z o'rnini almashtirish ham mumkin emas. Har bir so'zda uning shu paytgacha tortgan azob-uqubatlari, Vatan sog'inchi, shukronaligi, yurtini ozod ko'rish tuyg'usidan qoniqish hissi yaqqol sezilib turibdi. Haqiqiy she'r shunaqa bo'ladi, undagi har bir so'z qalbni cho'g'day jizillatib ta'sir qiladi. Erkin Vohidov ijodiga xos bunday fazilat uning ilk ijodiy qadamlaridan boshlab hozirgacha hamroh bo'lib kelayotir.

Hech ikkilansandan aytish mumkinki, istiqlol g'oyasi, mustaqillik uchun kurash mavzusini XX asrning 60-yillarida o'zbek she'riyatiga Erkin Vohidov olib kirdi. Sho'ro davrida o'sib, tarbiyalanib voyaga yetgan avlod xalq irodasi, o'ziga xos tarixi, millatning sha'ni, qadr-qimmati, jismoniy va ma'naviy kuch-qudrati ifodalangan, ajdodlarining shon-shavkati ulug'langan she'rlarni ishtiyoq bilan o'qishi, o'qiganda ham to'g'ri qabul qilishi (ya'ni uqishi) biroz qiyin edi. Shu bois o'sha paytda Erkin Vohidov tomonidan yaratilgan "O'zbegim" qasidasi odamlar ongi-shuuriga chaqmoqdek urildi. Ayrimlarni kuydirdi, ba'zilarni karaxt qilib qo'ydi. Lekin bu chaqmoq juda ko'pchilikning qalbidagi zulmatni yoritib yubordi. Buning boisi "O'zbegim" qasidasi o'z davrida millatning ma'naviy ehtiyoji tarzida dunyoga kelgan va xalqning ayni paytdagi biroz bo'lsa-da, yangilanayotgan xohish-istagini ifodalagan edi. Qasida 60-yillar boshlarida esa boshlagan demokratiya shabadasidek millatning biqiq ko'nglida burqsib turgan milliy or-nomus, milliy iftixon tuyg'usi darchasini ochib yubordi. Natijada, bu she'r odamlarda o'ziga ishonch, qat'iyat, milliy g'urur paydo qildi. Oradan ozgina vaqt o'tib yaratilgan "Ruhlar isyonii" dostoni, "Inson", "Bu qo'llardir" kabi qasidalari xalqimizning yorishgan ruhiyatini ishonchli kurash yo'liga olib chiqdi. Shu jihatdan 80-yillar o'rtalarida istiqlol uchun boshlangan ommaviy harakatda ana shu she'rlari va ular muallifi Erkin Vohidovning katta hissasi borligi shubhasizdir.

80-90-yillarda shoirning avvalgi she'rlariga xos lirk ohang chekinib, ovozi biroz dag'allashganligini, fikri jiddiyashganligini, xulosalari keskinlik kasb etganligini sezish mumkin. Aslida, buni o'z davri uchun ijobiyl fazilat sifatida baholash o'rnlidir. Negaki,

mazkur xususiyatlar jamiyatda yuz berayotgan alg‘ov-dalg‘ov hodisalar, Sho‘ro hukumatining xalqni mensimaslik, uning erkini, or-nomusini toptashga qaratilgan amaldagi harakatlariga qarshi norozilikning aks-sadosi tarzida dunyoga kelgan edi.

Ohangdagi bunday sifat o‘zgarishlari, ayniqsa, Erkin Vohidovning “Tirik sayyoralar” kitobidan o‘rin olgan kuchli ijtimoiy xarakterdagi she’rlari, “Kanada turkumi”, “Donishqishloq latifalari”da aniq ko‘zga tashlandi. Garchi shoirning “Arslon o‘rgatuvchi”, “Ko‘cha chetidagi ayol”, “Sharqiy qirg‘oq”, “Kelajakka maktub” singari she’rlarida erk muammosi kuchli ijtimoiy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lsa-da, ramziy timsollar orqali ifodalangan g‘oya biroz miskin kayfiyatda ifodalangan edi.

Erkin Vohidovning chinakam san’atkor sifatidagi bosh fazilatlaridan yana biri – o‘zining xalq dardini anglash, bu dardu tashvishlarni yengillatish uchun unga hamkoru hamdast bo‘lish an’anasiga, mustaqillikka erishilgandan keyin ham sodiq qolganligidir. Ya’ni shoir ayrimlarga o‘xshab, o‘zining bosh maqsadi – Vatani ozodlikka erishganidan keyin niyatiga yetgan fuqaro singari o‘zini chetga olmadi. Balki mustaqillikni yanada mustahkamlash, uni asrab qolish yo‘lida sobitqadamlik bilan ham ijodiy, ham amaliy faoliyatda namuna ko‘rsatdi.

Hurriyat – nomus-or, nafsoniyatdir,

Qadrin bilgan elga mangu niyatdir.

Hurriyatning o‘zi tayyor baxt emas,

Baxt uchun eng buyuk imkoniyatdir.

Hurriyatga ishonch, saboting kerak,

Jur’ating, parvozing, qanoting kerak.

Vatan hurriyati uchun hamisha

Fidolikka tayyor hayoting kerak.

Chindan ham shoirning o‘zi aytganidek, “Adabiyot – mo‘min-ma’qul odamlarning maydoni emas. Faqirona ko‘nikuvchanlik, o‘z tinchini o‘ylash iste’dodni halok etuvchi omillardir”. Bu bilan E.Vohidov she’riyat faqat hamdu sanolar vositasi emas, balki uning vazifasi mudroq xalqning ko‘zini ochish, erishilgan g‘alabani asrab qolish va ko‘paytirishdan iborat ekanligini amalda isbotlay oldi va istiqlol she’riyatini odamlar yo‘lini yorituvchi mash’alaga aylantirdi. Bu mash’ala hanuz porlab, o‘z qutlug‘ vazifasini sharaf bilan bajarib kelayotir.

Erkin Vohidov ijodining avvalgi bosqichlarida uchramagan murojaat usuli “Og‘riqli savollar”, “Davlat ishi”, “Shaharmi bu, qishloqmi bu...”, “Sen menga tegma”, “Bizdan keyin hech bir avlod qayta qurmasin” singari she’rlarida aniq ko‘zga tashlanadi. Ularda shoir-lirk qahramoni o‘quvchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qiladi, unga og‘riqli savollar berib, mantiqli javoblar kutadi. Ammo dilini qoniqtiradigan javob ololmay faryod chekadi. Binobarin, Erkin Vohidovning bu she’rlari inson qalbiga bevosita yo‘naltirilgan, inson sha’ni uchun kurashadigan, inson shaxsiga nisbatan mehr bilan sug‘orilgan she’riyat ekanligini isbotlaydi.

Erkin Vohidov bundan ko‘p yillar muqaddam:

Shoirlik – bu shirin jondan kechmakdir,
Limmo-lim fidolik jomin ichmakdir.
Shoirlik – jigarni ming pora etmak,
Bag‘ir qoni bilan satrlar bitmak.
O‘zni tomchi-tomchi, zarra va zarra
Elga qurban qilib, eng so‘nggi karra –
Armon bilan demak: “Ey, ona yurtim,

Kechir, xizmatingni qilolmay o‘tdim... – deb yozgan edi. Bugun shoirning ulkan adabiy merosidan bahramand bo‘lish asnosida to‘la huquq bilan aytishimiz mumkinki, Erkin Vohidov xalqiga xizmat qila olgani uchun haqli ravishda “O‘zbekiston Xalq shoiri” unvonini oldi. “Limmo-lim fidoyilik jomini” ichgani va bu yo‘lda namuna ko‘rsatgani uchun muhtaram Prezidentimiz o‘z qo‘llari bilan ko‘ksiga “Oltin yulduz”ni qadab “O‘zbekiston Qahramoni” deb e’lon qildilar. Xalqimiz va Vatanimiz oldidagi buyuk xizmatlari munosib taqdirlanib kelmoqda.

Hozir Erkin Vohidov ijodi aynan shiraga to‘lgan payti. Bu fikrimizni shoirning keyingi paytda e’lon qilgan she’rlari, publitsistik maqolalari, suhbatlari to‘la isbotlab turibdi. Ona xalqiga, Vataniga chinakam mehr qo‘ymagan ijodkor har qancha iste’dodga ega bo‘lmisin bunday mavqega erisha olmaydi. Mehr-muhabbati kuchli, sadoqati beqiyos bo‘lganligi tufayli Erkin Vohidov xalqimizning chindan ham nihoyatda suyukli shoiri bo‘lib qoldi. Shoир o‘zbek she’riyatiga yangicha fikr, yangi shakllar, yangi obraz, yangicha ohang, yangicha usul va vositalar olib kirdi va uning tamoman yangilanishiga munosib hissa qo‘shdi. Shoир she’rlari ko‘ngillarga orom, ruhimizga ko‘tarinkilik, vujudimizga madad bag‘ishlaydi. Demak, shunday shoirni sevmaslik, asarlarini chin dildan suyib mutolaa qilmaslik mumkin emas!

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. WWW.ZIYO.COM
2. WWW.ADABIYOT.UZ
3. XX ASR o‘zbek adabiyoti .
Toshkent ‘Yangi asr avlodи ‘ 2005.